

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAY UNIVERSITETI

YULDASHEVA NAZOKATXON MUROD QIZI

**KREMNIY XUSUSIYATLARIGA METALL NANOZARRACHALAR
TA'SIRINI TADQIQ QILISH**

01.04.10 – Yarimo'tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-
mathematical sciences**

Yuldasheva Nazokatxon Murod qizi

Kremniy xususiyatlariga metall nanozarrachalar ta'sirini tadqiq qilish..... 3

Юлдашева Назокатхон Мурод кизи

Исследование влияния металлических наночастиц на свойства кремния. 21

Yuldasheva Nazokatxon Murod qizi

Investigation of the effect of metal nanoparticles on silicon properties..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAY UNIVERSITETI

**YULDASHEVA NAZOKATXON MUROD QIZI
KREMNIY XUSUSIYATLARIGA METALL NANOZARRACHALAR
TA'SIRINI TADQIQ QILISH**

01.04.10 – Yarimo'tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM823 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.nammti.uz) va Ziyonet Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zaynabidinov Sirojiddin Zaynabidinovich
fizika-matematika fanlari doktori, O`zR FA akademigi

Rasmiy opponentlar:

Gulyamov Gafur
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Nasirov Abdumanap Abdulmajidovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “__” _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel./faks: (99869) 225-10-07; (99869) 225-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-bino, 2-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutiining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “__” _____da tarqatildi.
(2023 yil «__” _____dagi № _____ raqamli ryestr bayonnomasi.)

U.I.Erkafoyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., dotsent

B.X. Qo'chqorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

N.Yu.Sharibayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda energiya resurslariga bo‘lgan talabning tobora ortib borishi va global ekologik muammolarning keskinlashuvi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni jadal kengaytirishni talab qilmoqda. Shuning uchun ekologik toza qayta tiklanuvchi energiya manbalari – yarimo‘tkazgichli fotoelektrik energiya o‘zgartirgichlar samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator ilmiy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Fotoelektrik energiya o‘zgartirgichlar yuzasiga tushadigan yorug‘lik oqimining yutilishini ko‘paytirish, yuqori samarali fotovoltaik quvvat qurilmalari uchun yangi istiqbolli mono- va polikristalli tuzilmalar olish, ularning elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlarini o‘rganish, shuningdek energiya manbalaridan foydalanishning o‘ziga xos imkoniyatlarini o‘rganish shu kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Jahonda hozirgi kunda zamonaviy mikroelektronika asboblari va fotoelektrik qurilmalarning xususiyatlarini yaxshilash, ularning tez ishlashi va yuqori samaradorlikka ega bo‘lishlarini ta‘minlash uchun eng so‘nggi fan va texnologiya yutuqlaridan samarali foydalangan holda kremniyning xususiyatlarini tubdan yaxshilashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada maqsadli ilmiy tadqiqotlarni olib borish, jumladan mavjud mikroelektronika asboblarning funksional imkoniyatlarini iste‘molchilarning zamonaviy ehtiyojlariga moslab rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Buning uchun dastlabki bazaviy materiallarning xususiyatlarini tubdan o‘zgartirib borish, kremniyning optik xususiyatlarini, sezgirligi va tez ishlash xususiyatlarini tubdan yaxshilash, uning hajmida yutiluvchi fotonlar energetik spektrini kengaytirish va kremniy asosida yaratilgan fotoelektrik asboblarning samaradorligini oshirish uchun kremniy sirtiga nanoo‘lchamli metall zarrachalarni kiritib tadqiq etish, nanozarrachalarning kremniy hajmida kechadigan optik yutilishi, nomuvozanatli zaryad tashuvchilar ko‘chishi va generatsiya-rekombinatsiya jarayonlarilarning fizik mexanizmlarini aniqlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda ilm-fanni rivojlantirishga, jumladan, yarimo‘tkazgichli materiallar xususiyatlariga metall nanozarralar ta‘sirini tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish”¹ kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan turli yarimo‘tkazgichli asboblari va quyosh elementlarining negizi bo‘lgan kremniyda metall nanozarrachalarning optik yutilishi, nomuvozanatli zaryad tashuvchilar generatsiyasi va rekombinatsiyasi, *p-n*-o‘tish maydonida zaryad ko‘chish jarayonlarining fizik mexanizmlarini raqamli modellashtirishga tayangan nazariy

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni

hisoblashlar orqali tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son «Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»², 2021-yil 9-apreldagi PQ-5063-son «O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 17-iyulidagi PQ-3855-sonli "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi³, 2018-yil 6-avgustdagi PQ-3899-sonli "Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiyalash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli "Fizika sohasidagi tahlil sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa mehyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga, hususan, "III. Qayta tiklanuvchi energiyalarni rivojlantirish" – amaliy tadqiqotlar davlat dasturi doirasidagi: PPI-3, "Energetika, energiya va resurs tejamkorligi, transport, mashina va asboblarni qurilishi, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, elektron asboblarni qurilishini rivojlantirish" ustivor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantirishda kremniy eng asosiy xom ashyo hisoblangani uchun yarimo'tkazgichlarda kechadigan fizik jarayonlarni tadqiq qilish va boshqarish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy o'quv yurtlari olimlari tomonidan juda katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. Xususan jahonning yetuk olimlaridan A.L.Efros, J.I.Alferov, A.M.Brodskiy, Yu.Ya.Gurevich, V.V.Klimov, S.L.Mayer, E.L.Nolle, I.V.Protsenko, T.A.Vartanyan, M.L.Brongersma, K.R.Catchpole, V.A.Milichko va boshqa qator tadqiqotchilar tomonidan yarimo'tkazgichli nanotuzilmalar va nanozararacha kiritilgan kremniy asosli fotoelektrik o'zgartirgichlar ishlab chiqish bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ilmiy maktab vakillari akademiklar R.A.Mo'minov, M.S.Baxodirxonov, S.Zaynobidinov, A.S.Saidov, professorlar R.Ya.Rasulov, K.P.Abduraxmonov, E.Z.Imamov, G.Gulyamov, K.Ismailov, R.Aliev va boshqalar tomonidan Ni, Rh, Mn, Cu, Pt, Au, Ag, Ti kabi ko'plab nanozaralarni kremniyning elektrofizik, rekombinatsion, fotoelektrik va boshqa xususiyatlariga

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.07.2020 yildagi PQ-4779-son

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.07.2018 yildagi PQ-3855-son

hamda kremniy asosidagi quyosh elementlarining asosiy fotoelektrik parametrlariga ta'sirlari keng o'rganilgan.

I.V.Protsenko va uning shogirdlari tomonidan fotoemissiya samaradorligini oshirish uchun metall fotodetektorlar yuzasida mikro va nanostrukturalarni yaratishning o'ziga xos yechimlari topilgan va keng qo'llanilgan, V.V.Klimov va S.L.Mayerlar fotodetektorlarning samaradorligini oshirish uchun nanozarrachalarning plazmonik xususiyatlaridan foydalanishni taklif qilgan, LPR qo'zg'alganda metall nanozarrachalardan fotoemissiya samaradorligining oshishini eksperimental ravishda kuzatgan va undan fotodetektorlar samaradorligini oshirishda foydalanishni taklif qilganlar. Ammo, ushbu ishlarda nanozarrachalardan fotoemissiyani tizimli nazariy tahlil qilish va uning kesimini aniqlash amalga oshirilmagan. Shuningdek, kremniy asosli fotoo'zgartirgichlarga kiritilgan turli nanozarrachalarning o'lchamlari va turi, metallar dielektrik funksiyalarining tushayotgan yorug'lik to'liq uzunligiga bogliqligi hamda nanozarrachalarni kiritiladigan sohasini hisobga olgan holda o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining disertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon davlat universiteti Fizika kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Injeksion asboblarda va quyosh elementlari uchun ko'p qatlamli va polikristall strukturali yarimo'tkazgichlar olish va ularning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish", "Qattiq jismlar elektrofizik xususiyatlarining ularga turli kirishmalar kiritish hamda tashqi ta'sirlar natijasida o'zgarishini nazariy va amaliy tadqiq etish" mavzulari hamda A-4-12 "Nanoplazmonika effekti va uning yordamida kremniyli p-n-strukturalarda fotoelektrik energiya olish samaradorligini oshirish" (2015-2017 yy., ilmiy rahbar prof. R.Aliyev) va OT-F2-68 "Kristallarda kirishma-nuqsonli mikro va nanobirikmalar hosil bo'lish mexanizmlari va ularning keng imkoniyatli ko'p qatlamli strukturalar yaratishdagi roli"(2017-2021 yy., ilmiy rahbar akad. S.Zaynobidinov) davlat ilmiy texnika loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi klassik va kvant fizikasi qonuniyatlariga tayangan holda, kremniyning optik va elektrofizik xususiyatlarini uning hajmiga kiritilgan metall nanozarrachalar orqali yaxshilash shartlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fotoelektrik o'zgartirgichlar samaradorligini oshirish uchun kremniyga kiritilgan metall nanozarrachalar dielektrik funksiyalarining ularga tushayotgan yorug'likning to'liq uzunligiga bog'liqligini, ularning plazmonik parametrlarini hamda plazmonlarning uyg'onish shartlarini aniqlash;

metall nanozarrachalardan kremniyga fotoemissiya yuz berishi uchun eng maqbul metall turi va nanozarracha o'lchamini aniqlashning matematik modelini ishlab chiqish;

metall nanozarrachalardan kremniyga fotoemissiya kesiminining va nanozarracha ichidagi elektr maydon intensivligining tushayotgan yorug'likning to'liq uzunligiga bog'liqlik ifodalarini keltirib chiqarish;

“*Visual Basic*” dasturiy vositalari yordamida metall nanozarrachalar kiritilgan kremniyning asosiy fotoelektrik xossalarini kompleks tadqiq qilish imkonini beruvchi dasturlar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti raqamli texnologiya asosida modellashtirilgan nanozarrachalar kiritilgan kremniy.

Tadqiqotning predmeti raqamli texnologiya asosida modellashtirilgan turli metall nanozarrachalar kiritilgan monokristall kremniyning elektrofizik va optik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari sifatida “Eng kichik kvadratlar” usuli, kvant mexanikasining matematik apparati, “*Visual Basic*” dasturlash tizimi yordamida rasman ro’yxatdan o’tkazilgan EHM dasturiy mahsulotlari asosida raqamli modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

metall nanozarrachalar dielektrik funksiyalarini ularga tushayotgan yorug’likning to’lqin uzunligiga bog’liqligini hamda ularning zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi, relaksatsiya vaqti, elektr o’tkazuvchanligi kabi asosiy elektrofizik parametrlarini plazmonik parametrlarga bog’liq holda hisoblaydigan yangi ifodalar keltirib chiqarilgan;

metall nanozarrachalardan kremniyga fotoemissiya kesimining metall nanozarrachalar turiga va o’lchamiga bog’liqligi ko’rsatilgan hamda eng maqbul metall turi mis ekanligi va uning o’lchami ~ 4 nm bo’lishi kerakligi aniqlangan;

metall nanozarrachalardan kremniyga fotoemissiyada nanozarracha ichidagi elektr maydon intensivligi 20 martagacha ortishi va oltin nanozarrachasi uchun bu kattalik eng yuqori bo’lishi hamda fotoemission tokning maksimal qiymati oltin uchun eng katta ~ 3.5 mA/sm² bo’lishi aniqlangan;

kremniydagi $a=4$ nm radiusli metall (Cu) nanozarrachalarining fotoelektron emissiya va yutilish kesimlarining (σ) spektral bog’liqligini taqqoslash natijasida yutilayotgan fotonlarning $\sim 15\%$ fotoelektronlarga aylanishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kvant o’lchamli effektlardan samarali foydalanishga imkon beradigan yangi konstruksiyali fotoelektrik o’zgartirgichlar tayyorlash uchun teksturalangan kremniy sirtlarida tekis taqsimlangan metall nanozarrachalarni hosil qilishning yangi usuli ishlab chiqilgan;

metall nanozarrachalarda harakatlanayotgan va yorug’lik ta’sirida kremniyga chiqishi mumkin bo’lgan elektronlar uchun eng maqul potensial ko’rinishini aniqlashda ixtiyoriy ko’rinishdagi potensial uchun Shredinger tenglamasini sonli yecha oladigan kompyuter dasturi yaratilgan;

metall nanozarrachalar dielektrik funksiyalarining ularga tushayotgan yorug’likning to’lqin uzunligiga bog’liqligi, ularning plazmonik va elektrofizik parametrlari hamda plazmonlarning uyg’onish shartlarini aniqlash uchun kompyuter dasturi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: tadqiqotda modellashtirishning zamonaviy raqamli usullarini qo’llash, bajarilgan ishlarning mantiqiy yaxlitligi,

eksperimental olingan natijalar bilan hisoblangan natijalarning mosligi hamda o'lchash natijalarini qayta ishlashning umum qabul qilingan standart usullar bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati metall nanozarrachalar dielektrik funksiyalarining ularga tushayotgan yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'liqligi, ularning plazmonik va elektrofizik parametrlari hamda plazmonlarning uyg'onish shartlari uchun olingan yangi ifodalar va nazariy hulosalar metall nanozarrachalar kiritilgan yarimo'tkazgichlarning fizik xususiyatlari haqidagi yangi bilimlarning chuqurlashishiga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati metall nanozarrachalar dielektrik funksiyalarining ularga tushayotgan yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'liqligi, ularning plazmonik va elektrofizik parametrlari hamda plazmonlarning uyg'onish shartlari uchun olingan yangi ifodalar va nazariy hulosalar yarimo'tkazgichlar asosida tayyorlanadigan yangi plazmonik optoelektronik qurilmalarni yaratishda, shu jumladan quyosh fotoo'zgartirgichlarini, fotodetektorlarni, fotokatalizatorlar, datchiklar, nano o'lchamli LEDlar, kogerent nurlanishning miniatyurali (~44 nm) generatori – plazmon lazerlarni takomillashtirishda va molekulalarning floresensiyasini kuchaytirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Raqamli texnologiyalarga tayangan holda modellashtirilgan va nanozarralar kiritilgan kremniyli fotoelektrik tuzilmalar konstruksiyalaridagi fotonlar yutilishi, asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilar fotogeneratsiyasi va ko'chishining fizik jarayonlarini tadqiq qilish asosida:

Nanozarrachalarni hosil qilishning "Fotoelektrik o'zgartirgich va uni tayyorlash usuli" nomli yangi usuli (Patent № IAP 06512 18.05.2021 yil) taklif qilingan. Bu usul kvant o'lchamli effektlardan samarali foydalanishga imkon beradigan yangi konstruksiyali fotoelektrik o'zgartirgichlar tayyorlash uchun teksturalangan kremniy sirtlarida tekis taqsimlangan metal nanozarrachalarni hosil qilish imkonini bergan.

"Foton" AJ da yaxshilangan parametrlarga ega bo'lgan fotoelektrik qurilmalar ishlab chiqarishda tadqiqotning raqamli hisoblash metodlari va tajriba natijalaridan foydalanilgan. (AJning 2022 yil 12 dekabrda № 352 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada metall nanozarrachalar kiritish orqali fotoelektrik qurilmalarning samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy anjumanlarida ma'ruzalar qilinib, muhokamadan o'tkazilgan.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining nashr qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish nashr qilingan, ulardan 5 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan. Dissertatsiya ishi mavzusining natijasi sifatida 1 ta ixtiro uchun patent va 3 ta EHM dasturiy maxsulotlarining mualliflik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 sahifada bayon qilingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbliligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, taqiqotning predmeti, ob'yekti va metodlari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatilgan hamda natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati izohlangan.

“Nanozarralar kiritilgan yarimo'tkazgichlarning xossalarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar” nomli dissertatsiyaning birinchi bobida fotoelektrik qurilmalarning samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar, nanozarralarni sintez qilish usullari, xususan, qattiq jismlarda kimyoviy reaksiyalarga asoslangan usullar, nanokimyoy usullari, teskari mitsel usuli, metall nanozarrachalar va nanostrukturalar olishning nanolitografiya usuli, metall-tashqi muhit chegarasida yuzaga keladigan plazmonlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Metall nanozarrachalarning dielektrik funksiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobda nanoplazmonlarni uyg'otish mexanizmlari, ixtiyoriy o'lchamli zarralar va nanozarralar uchun Maksvell tenglamalarini yechishning “ ϵ -metodi”lari tavsiflangan va nanoplazmonika uchun metallarning dielektrik funksiyalari uchun yangi ifodalar olingan. Bu ifodalar yordamida va “Eng kichik kvadratlar” usuli asosida ixtiyoriy metall nanozarralarning plazmon parametrlarini oson aniqlash usuli taklif etilgan.

Bir xil chastotalarda sirtiy plazmonning to'lqin vektori erkin fotonning to'lqin vektoridan katta bo'ladi va shuning uchun odatdagi fotonlar bilan sirtiy plazmonlarni uyg'otish mumkin emas². Sirtiy plazmonlar metall-tashqi muhit chegarasidagi muhitlardan birining dielektrik singdiruvchanligi manfiy bo'ladigan chastotalarda, ya'ni

$$\begin{aligned}\epsilon_M(\omega) \cdot \epsilon_g(\omega) &< 0, \\ \epsilon_M(\omega) + \epsilon_g(\omega) &< 0\end{aligned}\tag{1}$$

shartlar bajarilgandagina yuzaga keladi.

Shunday qilib, yarimo'tkazgichlar sirtiga kiritilgan metall nanozarrachalar o'zlariga tushayotgan elektromagnit nurlanishlarning chastotalarga qarab o'zlarini turlicha tutishadi. Shuning uchun kremniy sirtiga kiritilgan metall nanonazarralar hamda kompleks dielektrik singdiruvchanligining tushayotgan elektromagnit to'lqinlar chastotasiga (to'lqin uzunligiga) bog'liqligini o'rganish nanoplazmonikaning dolzarb muammolaridan biridir. Jumladan, elektr maydonining chegarada sakrab o'zgarishini hamda depolyarizatsiya va radiatsion yo'qotishlarni hisobga olishda metall nanozarralar hamda uning atrofidagi yarimo'tkazgichning dielektrik funksiyasi tushayotgan yorug'likning to'lqin uzunligiga kuchli bog'langan.

Ma'lumki, dielektrik singdiruvchanlikning real qismi to'lqin uzunligiga

$$\text{Re } \epsilon = \epsilon_\infty - \frac{(\lambda / \lambda_p)^2}{1 + (\lambda / \lambda_f)^2} = \epsilon_\infty - \frac{\lambda_f^2}{\lambda_p^2} \frac{\lambda^2}{\lambda^2 + \lambda_f^2}\tag{2}$$

ifoda orqali bog‘langan. Bu ifodani λ (λ^2) ning darajalari bo‘yicha Teylor qatoriga yoysak,

$$\begin{aligned} \operatorname{Re} \varepsilon &= \varepsilon_{\infty} - \frac{\lambda_f^2}{\lambda_p^2} \left(\left(\frac{\lambda}{\lambda_f} \right)^2 - \left(\frac{\lambda}{\lambda_f} \right)^4 + \left(\frac{\lambda}{\lambda_f} \right)^6 \right) = \\ &= \varepsilon_{\infty} - \frac{\lambda^2}{\lambda_p^2} + \frac{\lambda^4}{\lambda_p^2 \lambda_f^2} - \frac{\lambda^6}{\lambda_p^2 \lambda_f^4} \end{aligned} \quad (3)$$

ifoda kelib chiqadi.

Ikkinchi tomondan, eksperiment natijalari asosida “Eng kichik kvadratlar” usulidan foydalanib har qanday ikkita fizik kattaliklar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash mumkin.

$\operatorname{Re} \varepsilon$ va λ lar orasidagi eksperiment natijalarini⁴

$$\operatorname{Re} \varepsilon = A_0 + A_1 \lambda^2 + A_2 \lambda^4 + A_3 \lambda^6 \quad (4)$$

ko‘rinishda faraz qilib, “Eng kichik kvadratlar” usuli yordamida A_i larni aniqlasak hamda (3) va (4) ifodalarni taqqoslak, plazmon parametrlar

$$\varepsilon_{\infty} = A_0, \quad (5)$$

$$\lambda_p = 1/\sqrt{-A_1}, \quad (6)$$

$$\lambda_f = 1/\lambda_p \sqrt{A_2} \quad (7)$$

ga teng ekanligi kelib chiqadi.

Dielektrik singdiruvchanlikning tushayotgan elektromagnit to‘lqinlar to‘lqin uzunligiga bog‘liqligini tadqiq qilish uchun Visual Basicda dastur tuzildi. Mazkur dastur yordamida olingan natijalar MS Excel ga jo‘natilib, grafiklar yordamida tasvirlanadi, eksperimental natijalar bilan taqqoslanadi hamda metall nanozarralar kiritilgan kremniy asosidagi fotoelektrik o‘zgartirgichlarning asosiy parametrlarini hisoblashda qo‘llaniladi.


Misol sifatida, dastur yordamida eksperiment natijalari asosida oltin (**Au**), kumush (**Ag**) va mis (**Cu**) kabi metallarning plazmon koeffitsientlari aniqlandi. Hisob-kitob natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Olingan natijalar² ishda keltirilgan natijalar bilan deyarli mos keladi. Jadvalda, shuningdek, hisoblash natijalarining aniqligini ko‘rsatuvchi - χ^2 ning qiymatlari ham keltirilgan.

⁴James W. Fleming, Marvin J. Weber et al. Handbook of Optical Materials 4th ed. Boca Raton, 2018, pages 536, eBook ISBN 9781315219615, DOI <https://doi.org/10.1201/9781315219615>

1-jadval. Metallarning plazmon va elektrofizik parametrlari

Element	$\lambda_p, \mu\text{m}$	$\lambda_{fs}, \mu\text{m}$	λ_∞	χ^2	A, eV	m^*, eV	n, sm^{-3}	σ, Sm	τ, s
Ag	0,126	4,056	6,781	0,24	4,52	1	7,0E+12	4,3E+06	2,15E-15
Al	0,05	0,775	28,047	1,05	4,41	0,97	4,3E+13	5,2E+06	4,11E-16
Au	0,143	7,492	8,763	0,20	5,1	0,99	5,4E+12	6,1E+06	3,98E-15
Cu	0,149	3,412	6,296	0,33	4,53	1	5,0E+12	2,6E+06	1,81E-15
Ni	0,13	0,908	4,95	0,04	5,04	1	6,6E+12	9,0E+05	4,82E-16
Pt	0,164	1,298	0,248	0,02	5,12	1	4,2E+12	8,1E+05	6,89E-16
Ti	0,149	0,718	3,606	0,09	4,33	3,95	1,9E+13	5,4E+05	3,81E-16
Zn	0,086	0,631	6,145	0,57	4,2	0,85	1,3E+13	1,4E+06	3,35E-16

1-rasmda va 2-jadvalda “Eng kichik kvadratlar” usuli yordamida aniqlangan plazmon parametrlar asosida (**Au**), kumush (**Ag**) va mis (**Cu**) kabi metallar dielektrik funksiyalari real qismining tushayotgan yorug‘likning to‘lqin uzunligiga bog‘liqlik grafiklari va hisoblash natijalari keltirilgan. Rasmda shuningdek, kremniy (**Si**) ning ham dielektrik funksiyasi keltirilgan.



1-rasm. Metallar dielektrik funksiyalari real qismlarining tushayotgan yorug‘likning to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi, $Re \epsilon = f(\lambda)$.

2-jadvalda (1) shartlar bajariladigan, ya’ni plazmonlar uyg‘onishi mumkin bo‘lgan qiymatlar ajratib (qizil rangda) ko‘rsatilgan. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, tushayotgan yorug‘likning to‘lqin uzunligi **Ag** da $\lambda=0.2 \mu\text{m}$ va $\lambda>0.6 \mu\text{m}$ bo‘lganda, **Al** da $\lambda=0.3 \mu\text{m}$ va $\lambda>0.5 \mu\text{m}$ bo‘lganda, **Au** da $\lambda=0.3 \mu\text{m}$ va $\lambda>0.7 \mu\text{m}$ bo‘lganda, **Cu** da $\lambda=0.2 \mu\text{m}$ va $\lambda>0.7 \mu\text{m}$ bo‘lganda, **Ni** da $\lambda=0.2 \mu\text{m}$ va $\lambda>0.8 \mu\text{m}$ bo‘lganda, **Pt** da $\lambda=0.3 \mu\text{m}$ va $\lambda>0.7 \mu\text{m}$ bo‘lganda, **Ti** da $\lambda=0.2 \mu\text{m}$ va $\lambda>1.1 \mu\text{m}$ bo‘lganda, **Zn** da $\lambda=0.2 \mu\text{m}$, $\lambda=0.2 \mu\text{m}$ va $\lambda>0.6 \mu\text{m}$ bo‘lganda plazmonlar uyg‘onishi mumkin.

2-jadval. Metallar dielektrik funksiyalari real qismlarining tushayotgan yorug‘likning to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi, $Re \varepsilon = f(\lambda)$.

$\lambda, \mu m$	<i>Ag</i>	<i>Al</i>	<i>Au</i>	<i>Cu</i>	<i>Ni</i>	<i>Pt</i>	<i>Ti</i>	<i>Zn</i>
0,1	6,15	24,07	8,27	5,85	4,37	-0,12	3,17	4,81
0,2	4,26	12,90	6,80	4,51	2,69	-1,21	1,94	1,18
0,3	1,13	-3,57	4,36	2,29	0,15	-2,95	0,17	-3,89
0,4	-3,21	-22,99	0,95	-0,78	-2,97	-5,22	-1,87	-9,46
0,5	-8,75	-43,26	-3,42	-4,68	-6,39	-7,89	-3,95	-14,86
0,6	-15,44	-62,88	-8,75	-9,36	-9,87	-10,85	-5,91	-19,72
0,7	-23,23	-80,96	-15,02	-14,79	-13,22	-13,95	-7,67	-23,90
0,8	-32,08	-97,12	-22,21	-20,91	-16,35	-17,10	-9,21	-27,44
0,9	-41,92	-111,27	-30,32	-27,66	-19,21	-20,21	-10,53	-30,38
1	-52,7	-123,54	-39,33	-35,00	-21,76	-23,22	-11,66	-32,82
1,1	-64,3	-134,09	-49,22	-42,85	-24,04	-26,09	-12,62	-34,85
1,2	-76,7	-143,17	-59,96	-51,17	-26,04	-28,79	-13,43	-36,54
1,3	-89,9	-150,96	-71,55	-59,88	-27,81	-31,30	-14,12	-37,95
1,4	-103,7	-157,67	-83,95	-68,93	-29,35	-33,63	-14,71	-39,14
1,5	-118,1	-163,46	-97,13	-78,26	-30,71	-35,78	-15,21	-40,15

Plazmonik parametrlar shuningdek, metallarning elektrofizik parametrlarini hisoblashga imkon beradi. Jumladan,

$$\omega_p^2 = \frac{4\pi e^2 n}{m^*} \quad (8)$$

$$\omega = \frac{2\pi}{\lambda} \quad (9)$$

ifodalardan zaryad tashuvchilar konsentratsiyasini aniqlash mumkin:

$$n = \frac{m^* \pi c^2}{e^2 \lambda_p^2} \quad (10)$$

Zaryad tashuvchilarning relaksatsiya vaqti

$$\tau = \frac{\lambda_f}{2\pi c} \quad (11)$$

formula orqali aniqlanadi. Uni

$$\sigma_0 = \frac{e^2 n \tau}{m^*} \quad (12)$$

elektr o‘tkazuvchanlik formulasiga qo‘ysak,

$$\sigma_0 = \frac{c\lambda_f}{2\lambda_p^2} \quad (13)$$

elektr o'tkazuvchanlikning plazmon parametrlariga bog'liq yangi ifoda kelib chiqadi.

1-jadvalda metallarning (10), (11) va (13) formulalar bo'yicha hisoblangan asosiy elektrofizik parameterlari ham keltirilgan.

“Yarimo‘tkazgichga kiritilgan nanozarralar uchun Shredinger tenglamasi” deb nomlangan uchinchi bobda to‘gri burchakli, parabolik va uchburchak ko‘rinishlardagi potentsiallarda nanozarradagi elektron harakatini tavsiflash uchun Shredinger tenglamalari shakllantirilgan va yechimlari keltirilgan. G‘alayonlanish nazariyasidan foydalanib, elektronning yorug‘likni yutib, nanozarradan chiqishini tavsiflovchi Shredinger tenglamasini yechish usullari keltirilgan. Shuningdek, ixtiyoriy shakldagi potentsiallar uchun Shredinger tenglamasini sonli yechish usullari tavsiflangan. Misol sifatida, to‘gri burchakli, parabolik va uchburchak ko‘rinishlardagi potentsiallar uchun Shredinger tenglamasi yechilib, MS Excel ko‘rinishidagi natijalar keltirilgan.

“Kremniyga kiritilgan nanozarralardan fotoemissiya kesimi” deb nomlangan to‘rtinchi bobda metall-yarimo‘tkazgich bo‘linish chegarasida elektromagnit maydon, elektronning effektiv massasi va potentsialning o‘zgarishi hisobga olinganda fotoemissiya ehtimolligi amplitudasi va kesimi uchun ifodalar olingan. Olingan ifodalar nanozarralardan kremniyga fotoemissiya uchun tadbiiq qilingan.

Nanozarrachalarda LPR qo‘zg‘alishida zaryad tashuvchilarning uzatilishi bilan bog‘liq hodisalardan biri bu nanozarrachalardan fotoemissiya. Nanozarrachalardan fotoemissiya katta (yorug‘lik to‘lqin uzunligi bilan solishtirganda), "makroskopik" metall strukturalardan fotoemissiyaning sezilarli darajada farq qiladi, chunki, birinchidan, LPR qo‘zg‘alganda EM maydon zarracha ichida va uning tashqarisida, nanozarracha yuzasiga yaqin sohalarda kuchli ortadi; ikkinchidan, nanozarracha sirtining uning hajmiga nisbati makroskopik tuzilmalarga qaraganda ancha katta. Ikkinchisi sabab muhim ahamiyatga ega, chunki fotoemissiyaga asosiy hissa qo‘shuvchi sirtiy fotoeffekt elektron fotonni yutib, metallni tark etganda va sirt bilan to‘qnashganda yuzaga keladi.

Nanozarrachalardan fotoemissiya miqdorini aniqlash va nanozarrachalardan fotoemissiya maksimal bo‘lgan optimal parametrlarni aniqlash uchun nanozarrachalardan fotoemissiya kesimini hisoblash kerak bo‘ladi. Metall zarrachalardan sirt fotoemissiyasining kesimini ulardagi LPR qo‘zg‘alishini hisobga olgan holda hisoblash va ushbu hisob-kitoblarga asoslanib, nanozarrachalardan fotoemissiya uzluksiz metall qatlamdan ko‘ra sezilarli darajada samaraliroq bo‘lishi ko‘rsatish bu ishning asosiy maqsadidir.

Ushbu bobda A.M.Brodskiy va Yu.Ya.Gurevichlar monografiyasida tavsiflangan klassik nazariyaga asosan nanozarrachalarning fotoemissiya kesimi hisoblab chiqiladi. Ushbu nazariyaning natijasini fotoemissiya ehtimoli uchun sirt effektlari, ya‘ni zarrachalar sirtida elektr maydoni va elektron massasining o‘zgarishlarini hisobga olgan holda umumlashtiriladi. Muhim yangi natija shundan iboratki, yuqorida qayd

etilgan sirt effektlarini hisobga olgan holda fotoemissiya kesimi bir necha marta o'zgaradi. Sirt effektlarini hisobga olish, ayniqsa, uzluksiz metall qatlamiga nisbatan nisbatan katta sirt yuzasiga ega bo'lgan nanozarrachalardan fotoemissiya uchun muhimdir.

G'alayon nazariyasi asosida bo'linish chegarasiga tik yo'nalishda harakatlanayotgan fotoemission elektronning ehtimollik amplitudasi uchun

$$C_+(\infty) = \frac{|e|m}{\hbar\omega W_1} \int_{-\infty}^{\infty} dz (E_m \frac{d\Psi_0}{dz} \Psi_{1-} + \frac{1}{2} \Psi_{1-} \Psi_0 \frac{dE_m}{dz}) \quad (14)$$

ifoda olingan. Umumiy holda fotoemissiya ehtimolligi amplitudasi

$$C_+(\infty) = \frac{|e|m}{W_1(\hbar\omega)^2} \int_{-\infty}^{\infty} dz (C_V + C_E + C_m) / m \quad (15)$$

ko'rinishda bo'ladi, bu yerda C_V , C_E , C_m – potensial, elektromagnit maydon va elektron massasining bo'linish chegarasida o'zgarishini hisobga olingan holdagi fotoemissiyaning tavsivlaydi:

$$C_V = -EV' \Psi_0 \Psi_{1-}, \quad (16)$$

$$C_E = E' \{ (\hbar^2 / 2m) \Psi_0' \Psi_{1-}' + [E_0 - V + \hbar\omega / 2] \Psi_0 \Psi_{1-} \}, \quad (17)$$

$$C_m = Em' / m [E_0 - V + \hbar\omega / 2] \Psi_0 \Psi_{1-} \quad (18)$$

Metall nanozarrachalarning fotoemissiya kesimi va fototok

$$\sigma_{ph-em} = \frac{8\pi\hbar\omega}{cn_+} C_{em} |F|^2 K_{geom}, \quad (19)$$

$$J_{ph-em} = C_{em} |F|^2 K_{geom} |E|^2 \quad (20)$$

ifodalar orqali aniqlanadi, bu yerda $n_+ = \text{Re} \sqrt{\varepsilon_+}$,

$C_{em} = \frac{e^2 k T V^2}{\pi^2 \hbar^5 \omega^4} \int dx [1 + (\hbar\omega / V - 1) / x]^{1/2} \ln(1 + \exp(\frac{E_f - Vx}{kT})) U(x) |K_{dis}(x)|^2 -$ fotoemissiya ehtimolligi;

$$U(x) = \frac{4r_m^2}{(r_m + 1)^2} \frac{x}{[x + r_m(1-x)] \{ (x + \hbar\omega / V)^{1/2} + [r_m(x + \hbar\omega / V - 1)]^{1/2} \}^2},$$

$$K_{dis}(x) = \frac{1}{2} (1 + \varepsilon_- / \varepsilon_+) [1 + \frac{1-r_m}{1+r_m} (2x + \hbar\omega / V - 1)] + \frac{1}{2} (1 - \varepsilon_- / \varepsilon_+) [x + \hbar\omega / V]^{1/2} + i(1-x)^{1/2}]^2$$

$$F = \frac{1}{1 + R_{dep} - iR_{rad}} \frac{\varepsilon_+}{\varepsilon_+ + (\varepsilon_- - \varepsilon_+)L} -$$

- chegarada elektr maydonining o'zgarishini hisobga oluvchi funksiyalar,

$$R_{dep} = \frac{\varepsilon_+}{\varepsilon_+ + (\varepsilon_- - \varepsilon_+)L} (A\varepsilon_+ y^2 + B\varepsilon_+^2 y^4), \quad R_{rad} = \frac{16}{9r} \left(\frac{\pi m_+ a}{\lambda} \right)^3 \frac{\varepsilon_+}{\varepsilon_+ + (\varepsilon_- - \varepsilon_+)L},$$

$$L = \frac{r^2}{2} \int \frac{du}{(u + r^2)^2 (u + 1)^{1/2}} -$$

- depolyarizatsiya va radiatsion yo‘qotishlarni hisobga oluvchi funksiyalar,


$$\varepsilon_-(\lambda) = \varepsilon_m(\lambda) + (\lambda/\lambda_p)^2 \left[\frac{1}{1+i\lambda/\lambda_f} - \frac{1}{1+(i\lambda/\lambda_f)(a_c/a+1)} \right], \quad \varepsilon_m(\lambda) = \varepsilon_\infty + (\lambda/\lambda_p)^2 \frac{1}{1+i\lambda/\lambda_f},$$

$$\varepsilon_+(\lambda) = \varepsilon_\infty + \sum_{i=1}^3 \frac{C_i}{1 - \left(\frac{1.242}{\lambda E_i}\right)^2 - i \frac{1.242}{\lambda E_i} \gamma_i} - F_1 \chi_1^{-2}(\lambda) \ln[1 - \chi_1^2(\lambda)] - F_2 \chi_2^{-2}(\lambda) \ln \frac{1 - \chi_1^2(\lambda)}{1 - \chi_2^2(\lambda)}$$

- nanometallar va kremniyning dielektrik funksiyalari.

Yuqoridagi ifodalar asosida metallarning plazmon parametrlarini, shuningdek, to‘lqin uzunligiga bog‘liq metall nanozarrachalardan fotoemissiya kesimi, fotoemission tok va elektr maydon intensivligini hisoblash uchun Visual Basicda dastur tuzildi. Dastur chiqish ishi, Fermi energiyasi, elektronning effektiv massasi, plazmonik parametrlar, nanozarracha o‘lchamlari va boshqalarni kiritish va o‘zgartirish imkonini beradi. Dasturning afzalligi shundan iboratki, yagona dasturiy muhitda hisob-kitoblar natijalari MS Excelga eksport qilinadi va ular nafaqat jadval, balki grafik shaklda ham ifodalanadi.


Hisoblash natijalari rasmlarda grafiklar shaklida ko‘rsatilgan. Kremniydagi a=10 nm o‘lchamli metall nanozarrachalarning (2-rasm) fotoelektron emissiya kesimining (σ) spektral bog‘liqligini hisoblash natijalariga ko‘ra, nafaqat qimmatbaho oltin, balki kumush va misning ham nanozarracha material sifatida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, mis nanozarralari fotoelektron emissiya kesimining eng yuqori qiymatlariga ega.



2-rasm. Kremniydagi a=10 nm o‘lchamli metall nanozarrachalarning fotoelektron emissiya kesimining (σ) spektral bog‘liqligi.


3-rasmda metallar plazmon parametrlarining (λ_f) elektronning metallardan va kremiydan chiqish ishlari farqiga bog‘liqligi keltirilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, oltin, kumush va misda bu kattalik eng katta qiymatlarga erishadi. Shuning uchun ham

2-rasmda keltirilgan fotoemissiya kesimi bu metallar uchun eng katta qiymatlarga erishadi.




3-rasm. Metallar plazmon parametrlarining (λ_f) elektronning metaldan va kremiydan chiqish ishlari farqiga bog'liqligi

4-rasmda kremniydagi metall (Cu) nanozarrachalarining fotoelektron emissiya kesimining (σ) ularning o'lchamiga qarab spektral bog'liqligini hisoblash natijalari ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, fotoelektron emissiya kesimining eng yuqori qiymati nanozarracha o'lchami $a=4$ nm da erishiladi. Mis nanozarracha o'lchami oshgani sari fotoelektron emissiya kesimi kamayadi va egri chiziqning maksimal nuqtasi o'ngga suriladi.




4-rasm. Kremniydagi metall (Cu) nanozarrachalarning fotoelektron emissiya kesimining (σ) nanozarracha o'lchamiga bog'liq spektral taqsimoti.

5-rasmda kremniydagi metall nanozarrachalarning fotoelektron emissiyasi (F^2) elektr maydoni intensivligining spektral bog'liqligini hisoblash natijalari ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, oltin uchun eng yuqori intensivlik qiymatiga erishiladi.




5-rasm. Kremniydagi metall nanozarrachalarning fotoelektron emissiyasi (F^2) elektr maydonining intensivligi ortishining spektral bog‘liqligi.

6-rasmda kremniydagi metall nanozarrachalarning fotoemission tokning (J_{fem}) spektral bog‘liqligini hisoblash natijalari ko‘rsatilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, fotoemission tokning eng yuqori qiymati kumush va mis uchun to‘g‘ri keladi.



6-rasm. Kremniyda metall nanozarrachalarning fotoemission tokning (J_{fem}) spektral bog‘liqligi.

7-rasmda kremniydagi $a=4$ nm radiusli metall (Cu) nanozarrachalarining fotoelektron emissiya va yutilish kesimlarining (σ) spektral bog‘liqligini hisoblash natijalari ko‘rsatilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, maksimal nuqtada fotoelektron emissiya kesimi yutilish kesimining $\sim 0,15$ qismini, ya’ni 15% ini tashkil qilmoqda. Demak yutilayotgan fotonlarning $\sim 15\%$ fotoelektronlarga aylanadi.



7-rasm. Kremniydagi $a=4$ nm radiusli metall (Cu) nanozarrachalarining fotoelektron emissiya va yutilish kesimlarining (σ) spektral bog‘liqligi.

Shunday qilib, tadqiqotning eng muhim natijalari quyidagilardir:

- Visual Basucda metallarning plazmon parametrlarini, shuningdek, tushayotgan yorug‘lik to‘lqin uzunligiga qarab fotoemissiya kesimi, nanozarracha ichidagi elektr maydoni intensivligi va fotoemission toklarni hisoblash dasturi ishlab chiqildi. Dastur chiqish ishi, Fermi energiyasi, elektronning effektiv massasi, plazmon parametrlari, nanozarrachalar o‘lchamlari va boshqalar qiymatlarini kiritish va o‘zgartirish imkonini beradi. Yagona dasturiy ta‘minot muhitida hisob-kitoblar natijalari MS Excelga eksport qilinadi va nafaqat jadval, balki grafik shaklda ham ifodalanadi;

- nanoplazmonika ta‘sirini yanada samarali amalga oshirishga erishish uchun metall nanozarrachalarining optimal o‘lchamlari aniqlandi;

- Nanzarracha material sifatida nafaqat qimmatbaho oltin va kumush, balki misdan ham foydalanish mumkinligi ko‘rsatildi. Bundan tashqari, mis nanozarralari fotoelektron emissiya kesimi va fotoemission tokning eng yuqori qiymatlariga ega.

XULOSA

Zamonaviy raqamli modellashtirish va nanozarralar kiritilgan kremniyning asosiy fotoelektrik xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, har tomonlama o‘rganish natijasida yangi texnik yechimlar taklif qilindi va quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

1. “Eng kichik kvadratlar usuli” asosida metall nanozarrachalar dielektrik funksiyalarining ularga tushayotgan yorug‘likning to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi uchun qator ko‘rinishidagi yangi ifoda va plazmonik parametrlarni aniqlashning yangi usuli taklif qilindi. Bu ifoda plazmonlarning uyg‘onish shartlarini aniqlashga imkon beradi.

2. Aniqlangan plazmonik parametrlar asosida metall nanozarrachalarning zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi, relaksatsiya vaqti, elektr o‘tkazuvchanligi kabi asosiy elektrofizik parametrlarini hisoblash uchun yangi ifodalar taklif qilindi.

3. Metall nanozarrachalarda harakatlanayotgan va yorug‘lik ta‘sirida kremniyga chiqishi mumkin bo‘lgan elektronlar uchun ixtiyoriy ko‘rinishdagi potensialga mos Shredinger tenglamasining sonli yechish usuli taklif qilindi.

4. Metall nanozarrachalarning dielektrik funksiyalari va plazmonik parametrlari asosida kremniyga fotoemissiya yuz berishi uchun eng maqbul metall turlari va ularning o‘lchamlari aniqlandi;

5. Metall nanozarrachalardan kremniyga fotoemissiyada nanozarracha ichidagi elektr maydon intensivligi ~20 martagacha oshishi mumkinligi ko‘rsatildi.

6. Metall nanozarrachalardan (mis) kremniyga fotoemissiyada hosil bo‘ladigan fotoemission tokning maksimal qiymati ~3.5 mA/sm² ga teng bo‘ldi.

7. Kremniydagi $a=4$ nm radiusli metall (Cu) nanozarrachalarining fotoelektron emissiya va yutilish kesimlarining (σ) spektral bog‘liqligini o‘rganish natijasida yutilayotgan fotonlarning ~15% fotoelektronlarga aylanishi aniqlandi.

8. “*Visual Basic*” dasturiy vositalar yordamida metall nanozarrachalar kiritilgan kremniyning asosiy fotoelektrik xossalarini kompleks tadqiq qilish imkonini beruvchi EHM dasturiy mahsulotlar ishlab chiqildi va rasman yangi dasturiy mahsulotlar sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi (“Shredinger tenglamasi” Guvohnoma № DGU 20866, 2022 yil, “Nanoplazmonika uchun metallarning dielektrik funksiyalari” Guvohnoma № DGU 17752, 2022 yil, “Metall nanozarralardan fotoemissiya kesimi” Guvohnoma № DGU 17966, 2022yil).

9. Kvant o‘lchamli effektlardan samarali foydalanishga imkon beradigan yangi konstruksiyali fotoelektrik o‘zgartirgichlar tayyorlash uchun teksturalangan kremniy sirtlarida tekis taqsimlangan metall nanozarrachalarni hosil qilishning yangi usuli taklif qilindi va unga O‘zbekiston Respublikasi patenti olindi (Patent O‘zR № IAP 06512, 18.05.2021 yil).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.11.2022.FM/Т.66.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЮЛДАШЕВА НАЗОКАТХОН МУРОД КИЗИ

**ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ МЕТАЛЛИЧЕСКИХ НАНОЧАСТИЦ НА СВОЙСТВА
КРЕМНИЯ**

01.04.10 – физика полупроводников

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО – МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.4.PhD/FM823.

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно – технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nammti.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Зайнабидинов Сирожиддин**
доктор физико – математических наук,
академик АН РУз.

Официальные оппоненты: **Гулямов Гафур**
доктор физико – математических наук, профессор

Насиров Абдуманап Абдулмажидович
кандидат физико – математических наук, доцент

Ведущая организация: **Ферганский государственный университет**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2023 года в ____ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 при Наманганском инженерно – технологическом институте по адресу: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская -7, Административное здание Наманганского инженерно – технологического института, 1-этаж, малый зал совещаний, Тел./факс: (99869) 225-10-07; (99869) 225-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно – технологического института (зарегистрирована за № ____) по адресу: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская -7, Тел. (99869) 225-10-07.

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2023 г.
(протокол рассылки № ____ от « ____ » _____ 2023 г.)

У.И.Эркабаев

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,
д.ф-м.н., доцент

Б.Х. Кучкоров

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней,
PhD., доцент

Н.Ю. Шарибаев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.ф-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Постоянно растущий спрос на энергоресурсы в мире и обострение глобальных экологических проблем требуют стремительного расширения использования возобновляемых источников энергии. Поэтому проводится ряд научно-практических исследований по повышению эффективности экологически чистых возобновляемых источников энергии - полупроводниковых фотоэлектрических преобразователей энергии. Увеличение поглощения светового потока, падающего на поверхность фотоэлектрических преобразователей энергии, получение новые перспективные моно- и поликристаллические структуры для высокоэффективных фотоэлектрических устройств, изучение их электрофизические и фотоэлектрические свойства, а также выяснение уникальные возможности использования источников энергии является одной из актуальных проблем современности.

В современном мире большое значение придается коренному улучшению свойств кремния, использованию новейших достижений науки и техники для улучшения свойств современных микроэлектронных устройств и фотоэлектрических приборов, обеспечения их быстродействия и высокой эффективности. В связи с этим предпринимаются усилия по проведению целевых научных исследований, в том числе по развитию функциональных возможностей существующих устройств микроэлектроники в соответствии с современными потребностями потребителей. Для этого радикальное изменение свойства исходных базовых материалов, кардинальное улучшение оптические свойства, чувствительность и быстродействие кремния, расширение энергетический спектр поглощаемых в его объеме фотонов, повышение эффективность фотоэлектрических устройств, созданных на основе кремния, исследования, проводимые путем внедрения в поверхность кремния наноразмерных частиц металла, определение физических механизмов оптического поглощения наночастиц в объеме кремния, миграции несбалансированных носителей заряда и генерации -процессы рекомбинации являются актуальными задачами.

В нашей республике уделяется особое внимание развитию науки, в том числе исследованиям влияния наночастиц металлов на свойства полупроводниковых материалов, и достигаются определенные результаты. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы предусмотрен ряд задач, в том числе были определены «непрерывное обеспечение экономики электроэнергией и активное внедрение технологий «Зеленой экономики» во все отрасли, повышение энергоэффективности экономики в 20 % ¹. Реализация этих задач, в том числе оптического поглощения наночастиц металлов в кремнии, являющемся основой различных полупроводниковых приборов и солнечных

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О новой стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы»

элементов, генерации и рекомбинации несбалансированных носителей заряда, путем теоретических расчетов, основанных на численном моделировании физических механизмов процессов переноса заряда в исследовании поля р-п-перехода является одной из актуальных задач, имеющих важное практическое значение.

Данное исследование в определенной мере служит реализации выполнения задач, определенных в Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № PQ-4779 от 10 июля 2020 года «Энергоэффективность экономики на дополнительные меры по снижению зависимости отраслей экономики от топливно-энергетических продуктов за счет увеличения и привлечения имеющихся ресурсов»², PQ-5063 от 9 апреля 2021 года «О продвижении возобновляемой и водородной энергетики в Республике Узбекистан о мерах по развитию», от 17 июля 2018 г. № ПЗ-3855 «О дополнительных мерах по повышению эффективности коммерциализации результатов научной и научно-технической деятельности»³, 2018 ПЗ-3899 от 6 августа «О мерах по повышению эффективности системы интеграции научной и инновационной деятельности», PQ-5032 от 19 марта 2021 г. «Меры по повышению качества образования в области физики и развитию научных исследований» и иных нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

